

ANTROPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNII

S. Abdurazzoqova¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada antroponimlar va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati tadqiqiga bag'ishlangan mulohazalar keltirilgan, ularning semantik xususiyatlari va nutqdagi vazifalari ham aniqlab berilgan.

Kalit so'zlar: antroponim, antroponimiya, onomastika, til, madaniyat, tilshunoslik, otlar, ismlar, etimologiya.

doi: <https://doi.org/10.2024/fh777006>

Barchamizga ma'lumki, til muloqot vositasidir. Mana shu zabonimiz orqali biz insonlar bir-birimiz bilan turli xil maqsadlarda suhbatga kirishamiz. Muloqot uchun tilimizdagi lug'at boyligimizdan foydalanamiz. Har bir tilning lug'at boyligidagi so'zlar tilshunoslikda leksikon atamasi bilan tanishdir. Navbahor Ahrorovna antroponimlarga bag'ishlangan maqolalaridan birida leksikon so'zi yunoncha so'z bo'lib, leksik ma'no, tilda mavjud so'z va iboralar to'plami, tilning leksik tuzilishi degan ma'noni anglatishini nazarda tutgan [6;76]. O'zbek tilining izohli lug'atida esa leksikon ma'lum bir kishining so'z va iboralari zaxirasi; biror ijtimoiy qatlam yoki muayyan faoliyat sohasiga mansub umumiste'moldagi so'zlar zaxirasi deya ta'riflanadi. Har bir tilning lug'ati muntazam ravishda har bir davrda doimo o'zgarib turadi. Bu o'zgarishga tur xil omillar sabab bo'ladi. Misol uchun turli kashfiyotlar, yangiliklar, texnologiyalar yaratilishi bilan o'sha sohalarga oid yangi so'zlar kirib keladi, o'sha tilda mavjud bo'lgan so'zlar to'liq yoki qisman eskiradi, shu tariqa bu eskirgan so'zlar insoniyatning amaldagi lug'at boyligidan chiqib ketadi. Mana shu yuqorida aytib o'tilgan jarayonlar ma'lum bir til lug'atidagi lingvistik hodisalardan hisoblanadi. Har qanday til lug'atining katta qismi odamlarga berilgan maxsus ismlardan iboratdir. Odamlarning ismlari hisoblangan antroponimlar kelib chiqishi jihatidan, olganda ular ham so'zlardir. Lekin bu shunchaki so'z emas, balki atoqli otdir. Ma'lumki, otlar narsa-predmetni yoki shaxsni nomlashiga ko'ra ikki turga bo'linib, ular atoqli va turdosh otlarga bo'linadi. Ba'zi turdosh otlar ma'lum bir sabablarga ko'ra atoqli otlarga aylangani holatlari ham uchrab turadi. Tilshunoslar uchun antroponimlarning hali chuqur o'rganilmagan jihatlari mavjud. Antroponimlar haqida qancha fikr bildirilmasin, ularni turli tillarda qiyosiy o'rganish hali ham to'liq yoritilmagan. Hamma tillarda ismlar shunchalik ko'pki, ularning hammasi ham bir xil ma'noga ega emas. Ism qanchalik kam ishlatilsa, u qanchalik qadimiy bo'lsa, vaqt o'tishi bilan u shunchalik noyob bo'ladi va uning etimologiyasini o'rganish kerak bo'ladi. Barcha ismlar ma'nolaridan tashqari nomlash funksiyasiga ega. Antroponimlarning insoniyat jamiyati uchun eng muhim va zarur vazifasi nom bo'lib xizmat qilishdir. Shunday qilib, odamning ismi bir odamni boshqasidan ajratish va farqlash uchun juda muhimdir.

¹ Abdurazzoqova Sabohat Abdurazzoq qizi, SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi

Barcha tillarning leksik qatlamida otlar alohida o'rin tutadi. Ular leksikonning barcha qatlamlari bilan chambarchas bog'langan. Atoqli otlarni o'rganish tilshunoslikda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Linguist Teylorning fikriga ko'ra, har qanday tilning barcha so'zlari kategoriyalashning ma'lum tamoyillariga muvofiq tizimlashtirilishi mumkin, bu "odamlar tildan foydalanishda atrofdagi dunyoni majburiy ravishda tasniflash jarayonini anglatadi" [7;1995]. Ushbu tamoyillar quyidagilardan iborat: so'zning ma'lum bir leksik-grammatik sinf vakili sifatidagi umumiy ma'nosini, uning individual ma'nosini, grammatik-morfologik kategoriyalarini va derivatsion-leksik-morfologik qonuniyatlarini aniqlash. Yuqoridagi tamoyillarga muvofiq so'zlarning leksik-grammatik sinflari sifatida so'z turkumlari tashkil etildi [1;1998]. Ot so'z turkumi mos ravishda narsa-predmet, obyekt, mohiyat va hokazolarni bildiruvchi so'zning umumiy ma'nosiga ega., shuningdek, ot son va kelishik kabi grammatik-morfologik kategoriyalarga (jins kategoriyasi esa leksik-grammatik kategoriya sifatida qaraladi) va uning derivatsion shakllariga ega. An'anaviy grammatikada antroponimlar atoqli otlar bo'lganligi uchun ot so'z turkumiga oid guruh sifatida tan olinadi.

Atoqli otlar asosan yangi tug'ilgan oila a'zosiga chiroyli ism berish uchun ishlatiladi. Hamma narsada ism bo'lgani kabi, odamlarning ham ismi bor. Misol uchun, "shoir" so'zi tilga olinganda, she'riyat bilan shug'ullanuvchi shaxs ko'z oldimizda shakllanishi mumkin, "kitob" so'zi esa umumiy atamadir. Bu otlar o'rtasidagi o'xshashlik jihati shuki, bular turdosh otlar guruhiga mansubdir. Bu ikkala turdosh ot har qanday tilga tarjima qilinishi mumkin. Ular o'rtasidagi farqli jihati esa biri shaxs oti, ikkinchisi esa narsa otidir. Atoqli otlar haqida gap ketganda esa ulardagi o'ziga xos xususiyatni aytib o'tish joizki, boshqa tilga atoqli otlar o'girilganda, ular tarjima qilinmasdan o'zicha talaffuz qilinadi va yoziladi. Masalan, Laziza, Akmal, John, Anna, Katrin. Fanda bu atoqli otlar antroponimlar deya ta'riflanadi.

Antroponim so'zining leksik ma'nosini aniqlashdan avval, antroponomiya atamasiga alohida e'tibor qaratish kerak. Barchaga ayonki, ismlarni o'rganadigan tilshunoslik bo'limi onomastika bo'lib, unda antroponimika odamlarning ismlari, familiyalari va taxalluslarini o'rganadi. Antroponomika antroponimning nutqdagi vazifasini shaxsning jamiyatga kirishi, o'zgarishi, yoshi, ijtimoiy yoki oilaviy holatida kuzatiladigan o'zgarishi sifatida belgilaydi, boshqa millatlar vakillarining yashash tarzi bilan bog'liq ismlar o'zgarishi, farqlanishi, o'ziga xosligi, ularning kelib chiqishi, jamiyatda qo'llanilishi, foydalanish qoidalari, tuzilishi va antroponomik tizimlarning rivojlanishi antroponomikaning muhim qismidir.

Antroponimlar o'zida tarixiy, geografik va lingvistik ma'lumotlarni jam qilgan bo'lib, shuningdek, ular semantik xususiyatlarga ham egadir. Manbalarda nomlash bo'yicha turlicha fikr va qarashlar mavjuddir. Antropolog Ernest Begmatov shunday deydi: "Nomlash odati bir kishini boshqasidan ajratish zaruratidan kelib chiqadi. Keyingi va rasmiy familiyalar, taxalluslar, otasining ismi, ajdodlar (patronomik) ismlari va shaxsni nomlashning turli shakllari, shuningdek boshqa shakllari va usullari bunday hayotiy ehtiyojning qonuniy mahsulotlari". Insonning ismi uni boshqa odamlardan farqlash uchun xizmat qiladi va unga butun hayoti davomida ko'p jihatdan ta'sir qilishi mumkin.

Bir qator tadqiqotchilarimiz o'zbek tilshunosligida onomastika va antroponomiya sohasidagi muammolarni hal etish va rivojlantirishga o'z

hissalarini qo'shdilar. Bular: E. Begmatov, H. Dadaboyev, G. Abdurahmonov, N. Mahmudov, N. Husanov, T. Nafasov, N. Ulugov, B. Yuldashev, R. Nuriddinova, Ya. Avlakulov, D. Xudoyberganova, D. Andaniyozova kabi tilshunos olimlarimizdir. Ayniqsa, E. Begmatov, N. Husanov, G. Sattorov, S. Rahimov, I. Xudoynazarov, R. Xudoyberganov va boshqalar o'zbek antroponimlari haqidagi materiallarni to'plashga, leksik va semantik xususiyatlari, lingvistik tuzilishi, ismlarning etnografik va motivatsion ma'nolarini o'rganish, o'zbek mintaqaviy antroponimiyasining o'ziga xos tomonlarini kuzatish, ismlarning orfografik va izohli lug'atlarini tuzish sohalariga munosib hissa qo'shishgan. Biroq, o'zbek antroponimiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi, ismlarning nominativ xususiyatlari, nomlashning motivatsion asoslari, lingvistik va nolingvistik tamoyillarning roli, antroponomiya sotsiologik nuqtai nazardan ilmiy o'rganish kabi muammolar hanuzgacha tegishli tadqiqotchilarni kutmoqda. Ismlar tizimini sotsiologik jihatdan o'rganmasdan turib, antroponimlarning kelib chiqishi, antroponimlar tizimining rivojlanishi, boyitilishi va o'zgaruvchan xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bo'lmaydi [3; 604].

E. Begmatovning o'zbek lingvistikasi sohasida xizmatlari tahsinga loyiq. Chunki o'zbek tilidagi onomastikaga bag'ishlangan lug'atlar bu buyuk olim tomonidan yaratilgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, E. Begmatovning "O'zbek ismlari izohi" nomli kitobi 14600 ta ismni o'z ichiga oladi. Bu kitob mana necha yillar o'tibdiki, o'zining muhim va ma'noli ismlar lug'ati kitobi darajasini yo'qotgani yo'q. Hozirgi kungacha o'zbek oilalarida ota-onalar farzandlariga ism tanlashda bu kitobdan foydalanib kelishmoqda [10; 605]. Bu lug'atda ismlarning qaysi tildan kelib chiqqanligi, leksik ma'nosi aks ettirilgan. Bu kitob orqali o'zbek millatiga mansub har bir kishi o'z ismining ma'nosini anglab oladi, shuningdek, chaqaloqlari uchun o'zlariga yoqqan ismlarni ma'nosini bilgan holda tanlaydi. O'zbek ismlari haqida ko'plab kitoblar yozilgan. Ularning aksariyati ushbu kitob muallifi - filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatov qalamiga mansubdir.

Olim N. Mahmudov "Til va tilshunoslik" maqolasida har qanday fanni o'rganish va o'zlashtirish uchun uning alifbo - terminologiyasini bilish zarurligini ta'kidlab o'tgan. Ma'lumki, fandagi katta va kichik tushunchalar to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilgan "[9; 3]. Demak, terminologiya har qanday fanni o'rganishda, ularning ma'nosini tushunishda juda muhimdir. Shuning uchun har bir soha uchun boy lug'atlar yaratilmoqda. Bu yutuqlarda o'zbek terminologiyasining boyib, rivojlanib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Antroponimlar leksik tizimda ma'lum bir o'ringa ega. Shuning uchun ular boshqa leksik birliklardan semantik, uslubiy va tavsiflovchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega va ular madaniyatni va jamiyatning ijtimoiy hayotini aks ettiradi.

Ismlar, shuningdek, ma'lum bir shaxsning nasabini va uning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi. Har bir ism ma'lum bir sababga ko'ra paydo bo'ladi. Har bir ismning o'ziga xos tarixi, tarjimai holi va geografiyasi mavjud. Ismlar lingvistik jihatdan realistik yoki uydirma bo'lishi mumkin. Til birligi sifatida ular shaxslarni nomlash uchun xizmat qiladi va insonlarni bir-biridan ajratadilar. Og'zaki ma'lumotlarda ular so'zlovchining ismga munosabatini tasvirlaydi. Misol uchun, Odil ismini eshitganimizda, ko'z o'ngimizda adolatli insonni ko'ramiz. Bu nomga nisbatan ijobiy munosabatni bildiradi. Ismlarda, shuningdek, millatparvarlik, qadimiylik va yangilikka oid ishoralar yashirin. Bugungi kunda inson nomlari bilan shug'ullanadigan antroponomiya sohasi alohida ahamiyatga ega. Har bir inson ism nimani anglatishi, qaysi tilga tegishli ekanligi va hokazolar

haqida ko'p ma'lumotlarni bilishni xohlaydi. Shuning uchun bu sohani keng targ'ib qilish hamma uchun zaruratga aylandi. Ba'zida psixologik holat ta'sirida shakllangan ismlar ham inson nomiga kiritiladi. Tug'ilishdan sog'lig'i yaxshi bo'lmagan va o'lim xavfi bo'lgan bolalarda Umriya, O'lmas (o'zbek ismi) ismlari tanlanadi. Bizning millatda yosh bolalarga shunday nom berish ularning umrini uzaytirish va sog'lig'ini tiklashni anglatadi. Norbibi, Anora (o'zbek ismi) ismlari tug'ilgan kundan boshlab tanasida dog ' bo'lgan bolalarga beriladi. Bolaning tanasidagi belgi uning ismi bilan tug'ilgan deb ishoniladi. Ko'rinib turibdiki, milliy va ma'naviy nomlashning etno-psixologik holati tufayli oilada, xalq hayotida azaldan an'ana bo'lib kelgan nomlash tamoyillari noyob bo'lib, bolalar salomatligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Boshqa xalqlarda ham shunga o'xshash misollar qabilalar va etnik guruhlarda kuzatilgan va ilmiy manbalarda ham qayd etilgan.

Antroponimlar va ularning turlari muammosi ham dolzarbdir. Shunday qilib, lug'at tilning mavjudligi va uning tarkibiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Onomastika bo'limi ham kichik tizimlarga bo'lingani kabi, bitta tizimi bo'lgan antroponimlar boshqa quyidagi tizimlarga bo'linadi. Bular:

1. Shaxsiy ism (tug'ilganda qo'yilgan ism)
2. Familiya (umumiy ism yoki otasining ismi)
3. Otaning ismi
4. Mononimlar
5. Taxallus
6. Taxalluslarning har xil turlari
7. Matronim
8. Kriptonim (taxallus)
9. Adabiy asarlarning antroponimlari (adabiy antroponimiya)
10. Xronimlar (tarixiy voqealar nomlari)
11. Mifonimlar (yunoncha afsona, ism, unvon)
12. Toponimlar (joy nomlari)
13. Makronimlar (katta hududlar, yirik ob'ektlarning ma'lum nomlari)
14. Gidronimlar (suv bilan bog'liq nomlar)
15. Teonimlar (diniy nomlar)
16. Astronomiya (Koinot nomlari)
17. Fitonimlar (o'simlik nomlari)
18. Zoonimlar (hayvonlarning nomlari) va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, ismlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, antroponimlar millatning milliy urf-odatlarini va an'analari, xalqning madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Shuningdek, ismni tanlashdan maqsad omon qolish uchun muhim sabab bo'lib qolmoqda va bu soha hali qiyosiy to'liq o'rganilmagan, antroponimlarni qiyosiy tadqiq qilishda tilshunoslarning oldida turgan ulkan vazifalardan biri uch tilda antroponimlarning qiyosiy leksik-semantik xususiyatlarini, ya'ni o'zbek, ingliz va rus tillarida o'rganishdir. Tadqiqotimizni ko'rib chiqsak, dunyoda onomastika va uning antroponimikasini, ayniqsa rus va o'zbek tilshunosligini o'rganishga katta qiziqish borligini ta'kidlashimiz mumkin. Ushbu sohalar tez o'sdi va rivojlandi. Hali o'rganilmagan ko'plab sohalar mavjud. Shuning uchun bizning tilshunoslarimiz ushbu sohadagi dissertatsiyalari, monografiyalari va maqolalarini ishlab chiqmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Alexandrova, O. V., & Komova, T. A. (1998). *Modern English Grammar: Morphology and Syntax*. Moscow State University.
- [2]. Ahrorovna, N. N. (2022). *Study of Anthroponyms and Their Places in the Lexical System*. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 90-96.
- [3]. Begmatov E., O'zbek ismlari ma'nosi, T., 1998.- 604 b.
- [4]. Garagulya, S. I., Nikitina, M. Y., Kugan, E. I., Svezhentseva, I. B., & Chernova, O. O. (2022). *Anthroponyms As A Subclass of The Lexical-Grammatical Class of Nouns*. In I. Savchenko (Ed.), *Freedom and Responsibility in Pivotal Times*, vol 125. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences* (pp. 1273-1279). European Publisher.
- [5]. Murodilloyeva, A. N. (2022). *Proverbs and Foreign language teaching*. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 6, 44-46.
- [6]. Nazarova, N. (2022). *Lexico-semantic Features of Anthroponyms*. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 25(25).
- [7]. Taylor, J. R. (1995). *Linguistic Categorization: Prototypes in Linguistic Theory*. Clarendon Press.
- [8]. Vaxobovna, A. Z. (2022). *About the lexical-semantic features of anthroponyms*. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 51-53.
- [9]. Маҳмудов Н. *Фан тили ва тил фани // О'zbek тили ва адабиёти*. –Тошкент: 2013. – № 5.
- [10]. Бегматов Э.А. *Ўзбек исмлари изоҳи*. 14600 исмлар. – Тошкент: *О'zbekiston миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти*, 2016.
- [11]. Ravshanovana, Q. O. (2020). *O'zbek-ingliz antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlari*. *Oriental Art and Culture*, (III), 352-357.
- [12]. <https://izoh.uz/word/leksikon>.